

**“KELISHILGAN”**

**O‘zbekiston Shaxmat  
federatsiyasi raisining  
birinchi o‘rinbosari**

  
**X. Turdialiyev**  
“ \_\_\_\_\_ 2024-yil

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Yoshlar siyosati va sport  
vaziri o‘rinbosari**

  
**Sh. Maxmudov**  
\_\_\_\_\_ 2024-yil

**Sportning shaxmat turi bo‘yicha 2024-yilda O‘zbekiston chempionati,  
O‘zbekiston kubogi hamda Respublika musobaqalarini  
o‘tkazish to‘g‘risidagi**

**NIZOMI**

**Toshkent - 2024**

**Sportning shaxmat turi bo'yicha 2024-yilda O'zbekiston chempionati,  
O'zbekiston kubogi hamda Respublika musobaqalarini  
o'tkazish to'g'risidagi**

**NIZOMI**

Mazkur Nizom shaxmat sport turi bo'yicha respublika sport musobaqalarining (bundan buyon matnda musobaqalar deb yuritiladi) maqsadi va asosiy vazifalari, sport musobaqalari jarayonini tashkil etish va boshqarish, ularni o'tkazishga rahbarlik qilish, moliyalashtirish, shuningdek musobaqa g'olib va sovrindorlarini taqdirlash tartibini belgilaydi.

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1. Respublika musobaqalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda o'tkazilgan (*uch bosqich, mahalla (muassasa), tuman (shahar) va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar miqyosida o'tkazilgan viloyat saralash*) musobaqalarda g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar hamda 2024-yil uchun O'zbekiston Milliy terma jamoalari ro'xatiga kiritilgan sportchilari ishtirok etadi. Bunda:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-5279-sonli** qaror talablariga muvofiq, O'zbekiston chempionatlari (kuboklari)ning final bosqichlarida faqat mazkur musobaqalarning quyi bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan va tegishli hujjatlarni Platformaga joylashtirgan (*Platforma ishga tushirilgandan so'ng*) jamoalar (yakka sportchilar) ishtirok etadi. **Ushbu talablarga rioya qilinmasa jamoalar (yakka sportchilar) mazkur musobaqalarda ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi.**

2. Musobaqada har bir ishtirokchi partiyalarni (o'yinlarni) yozib borishi va hakamlar xay'atiga taqdim etib borishi shart! Aks holda, ishtirokchi o'yindan chetlatiladi. Musobaqani o'tkazish uchun hakamlar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi.

3. Musobaqada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlariga amal qilinadi.

**II-bob. Musobaqaning maqsadi va vazifalari**

4. Musobaqalarning maqsadi O'zbekistonda shaxmat sport turini ommalashtirish va rivojlantirish, sport va madaniy ana'nalarini saqlash va ko'paytirish, sportchilarning mahoratini oshirish, o'z yosh toifasida shaxsiy va

jamoaviy O‘zbekiston, Osiyo va Jahon chempionatlarida ishtirok etuvchi sportchilarni aniqlash va saralab olishdir.

5. Musobaqaning vazifasi Respublika hududlari va sport tashkilotlarida turli yosh guruhlaridagi shaxmat sport turi bo‘yicha sportchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularni saralab olish, O‘zbekiston milliy terma jamoalarini shakllantirish, shuningdek, shaxmat sport turi bo‘yicha kuchli sportchilarni aniqlash, trener va hakamlarning malakasini oshirish, o‘tkaziladigan musobaqalar natijalarini tahlil qilishdan iborat.

### **III-bob. Musobaqani o‘tkazishga rahbarlik**

6. Musobaqani o‘tkazishga umumiy rahbarlik O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) tomonidan hamda O‘zbekiston Shaxmat federatsiyasi (bundan buyon matnda federatsiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

7. Musobaqani adolatli va shaffof holda o‘tkazilishi bevosita hakamlar xay’ati zimmasiga yuklatiladi. Hakamlar ro‘yxati federatsiya tomonidan vazirlikka taqdim qilinadi hamda ro‘yxat O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

8. Musobaqada ishtirok etuvchilarning hujjatlarini qabul qilish va rasmiylashtirish federatsiya tomonidan shakllantirilgan mandat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

### **IV-bob. Musobaqani o‘tkazish joyi va muddati**

9. Musobaqalar Respublika hududida amaldagi Xalqaro Shaxmat federatsiya (FIDE) qoidalari asosida o‘tkaziladi.

10. Vazirlikning 2024 yil uchun sport tadbirlari kalendar rejasiga asosan sportning shaxmat turi bo‘yicha musobaqalar ro‘yxati mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq, sportning shaxmat turi bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqalar dasturi 2-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

11. Mandat kommissiyasining ish vaqti, sanasi hamda joyi musobaqa dasturida ko‘rsatib o‘tiladi.

12. O‘zbekiston chempionatlarini (kuboklar) o‘tkazishda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

1-bosqich — mahalla (muassasa) miqyosida;

2-bosqich — tuman (shahar) miqyosida;

3-bosqich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar miqyosida;

4-bosqich — respublika miqyosida amalga oshiriladi;

13. Final bosqichlarida faqat mazkur musobaqalarning quyi bosqichlarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan va tegishli hujjatlari Onlayn platformaga joylashtirilgan jamoalar ishtirok etishlari belgilab qo‘yilgan.

## V-bob. Musobaqada ishtirok etish shartlari

14. Shaxmat bo'yicha yoshlar va o'smirlar (qizlar) o'rtasida O'zbekiston chempionati quyidagi yosh kategoriyalari bo'yicha o'tkaziladi va unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan quyidagi imtiyozga ega sportchilar ishtirok etishlari mumkin.

**8 yoshgacha O'zbekiston chempionatida ishtirok etishga quyidagilarga ruxsat etiladi:**

har bir viloyatdan va Qoraqalpog'iston Respublikasidan 4 nafardan ishtirokchi (ikkita qiz bola va ikkita o'g'il bola) 8 yoshgacha va 2 nafar qatnashchi (bitta qiz bola va bitta o'g'il bola) 6 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilar (Samarqand viloyati va Toshkent shahri bundan mustasno);

Samarqand viloyatidan 8 nafardan (to'rt nafar o'g'il va to'rt nafar qiz bola) 8 yoshgacha va 4 nafar (ikkita qiz bola va ikkita o'g'il bola) 6 yoshgacha bo'lgan o'smirlar;

Toshkent shahridan 10 nafar qatnashchi (5 nafar qiz va 5 nafar o'g'il bola) 8 yoshgacha va 4 nafar qatnashchi (2 ta qiz bola va 2 ta o'g'il bola) 6 yoshgacha ishtirok etishi mumkin.

2023 yilgi 8 yoshgacha O'zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o'rinni egallagan sportchilar ishtirok etishlari mumkin.

Barcha ishtirokchilar 2016 yildan katta bo'lmasligi, 6 yoshgacha qatnashchilar esa - 2018 yildan katta bo'lmasligi shart.

**10 yoshgacha O'zbekiston chempionatida quyidagilar ishtirok etishi mumkin:**

har bir viloyatdan va Qoraqalpog'iston Respublikasidan 4 nafardan ishtirokchi (ikkita qiz bola va ikkita o'g'il bola) (Samarqand viloyati va Toshkent shahri bundan mustasno);

Samarqand viloyatidan 8 nafardan (to'rt nafar o'g'il va to'rt nafar qiz bola);

Toshkent shahridan 10 nafar qatnashchi (5 nafar qiz va 5 nafar o'g'il bola).

2023 yilgi 10 yoshgacha O'zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o'rinni egallagan sportchilar ishtirok etishlari mumkin.

2023 yilgi 8 yoshgacha O'zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o'rinni egallagan sportchilar agar ular 2016 yildan katta bo'lsa;

Barcha ishtirokchilar 2015 va 2014 yilda tug'ilgan bo'lishi shart.

**12 yoshgacha O'zbekiston chempionatida quyidagi sportchilar ishtirok etadi:**

har bir viloyatdan va Qoraqalpog'iston Respublikasidan 4 nafardan ishtirokchi (ikkita qiz bola va ikkita o'g'il bola) (Samarqand viloyati va Toshkent shahri bundan mustasno);

Samarqand viloyatidan 8 nafardan (to'rt nafar o'g'il va to'rt nafar qiz bola);

Toshkent shahridan 10 nafar qatnashchi (5 nafar qiz va 5 nafar o'g'il bola).

2023 yilgi 12 yoshgacha O'zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o'rinni egallagan sportchilar ishtirok etishlari mumkin.

2023 yilgi 10 yoshgacha O'zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o'rinni egallagan sportchilar agar ular 2014 yildan katta bo'lsa;

Barcha ishtirokchilar 2013 va 2012 yilda tug'ilgan bo'lishi shart.

**14 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida quyidagi sportchilar ishtirok etadi:**

har bir viloyatdan va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 4 nafardan ishtirokchi (ikkita qiz bola va ikkita o‘g‘il bola) (Samarqand viloyati va Toshkent shahri bundan mustasno);

Samarqand viloyatidan 8 nafardan (to‘rt nafar o‘g‘il va to‘rt nafar qiz bola);

Toshkent shahridan 10 nafar qatnashchi (5 nafar qiz va 5 nafar o‘g‘il bola).

2023 yilgi 14 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o‘rinni egallagan sportchilar ishtirok etishlari mumkin.

2023 yilgi 12 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o‘rinni egallagan sportchilar agar ular 2012 yildan katta bo‘lsa;

Barcha ishtirokchilar 2011 va 2010 yilda tug‘ilgan bo‘lishi shart.

**16 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida quyidagilar ishtirok etishi mumkin:**

har bir viloyatdan va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 4 nafardan ishtirokchi (ikkita qiz bola va ikkita o‘g‘il bola) (Samarqand viloyati va Toshkent shahri bundan mustasno);

Samarqand viloyatidan 8 nafardan (to‘rt nafar o‘g‘il va to‘rt nafar qiz bola);

Toshkent shahridan 10 nafar qatnashchi (5 nafar qiz va 5 nafar o‘g‘il bola).

2023 yilgi 16 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o‘rinni egallagan sportchilar ishtirok etishlari mumkin.

2023 yilgi 14 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o‘rinni egallagan sportchilar agar ular 2010 yildan katta bo‘lsa;

Barcha ishtirokchilar 2009 va 2008 yilda tug‘ilgan bo‘lishi shart.

**18 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida quyidagilar ishtirok etishi mumkin:**

har bir viloyatdan va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 4 nafardan ishtirokchi (ikkita qiz bola va ikkita o‘g‘il bola) (Samarqand viloyati va Toshkent shahri bundan mustasno);

Samarqand viloyatidan 8 nafardan (to‘rt nafar o‘g‘il va to‘rt nafar qiz bola);

Toshkent shahridan 10 nafar qatnashchi (5 nafar qiz va 5 nafar o‘g‘il bola).

2023 yilgi 18 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o‘rinni egallagan sportchilar ishtirok etishlari mumkin.

2023 yilgi 16 yoshgacha O‘zbekiston chempionatida (standart) 1-3 o‘rinni egallagan sportchilar agar ular 2008 yildan katta bo‘lsa;

Barcha ishtirokchilar 2007 va 2006 yilda tug‘ilgan bo‘lishi shart.

“Toshkent qishi, bahori, yozi va kuzi 2023“ turnirlarida 16 nafargacha sovrindorlar o‘z yosh kategoriyasida (standart) ishtirok etish imkoniyatiga ega.

15. Erkaklar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati Oliy ligasida ishtirok etish huquqiga quyidagilar ega:

2021 yilgi erkaklar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati Oliy ligasida 1-6 o‘rinni egallagan sportchilar;

2022 yilgi erkaklar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati birinchi ligasida 1-4 o‘rinni egallagan sportchilar;

2023 yilgi erkaklar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati birinchi ligasida 1-3 o‘rinni egallagan sportchilar;

O‘zbekiston Shaxmat federatsiyasining trenerlar kengashining qaroriga binoan 1 nafar grossmeyster;

1-6 o‘rinni egallagan sportchilar 2025 yilgi erkaklar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati Oliy ligasida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

16. Ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati Oliy ligasida ishtirok etishga quyidagilarga ruxsat etiladi:

2022 yilgi ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati Oliy ligasida 1-6-o‘rinni egallagan sportchilar;

2023 yilgi ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati birinchi ligasida 1-4-o‘rinni egallagan sportchilar;

O‘zbekiston Shaxmat federatsiyasining trenerlar kengashining qaroriga binoan 2 nafar grossmeyster;

1-6 o‘rinni egallagan sportchilar 2025 yilgi ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati Oliy ligasida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

17. Faxriylar o‘rtasida O‘zbekiston birinchiligi (erkaklar va ayollar) ishtirok etishga ruxsat etiladi:

erkaklar o‘rtasida 60 yoshga va undan katta bo‘lgan va 50 yosh va undan katta bo‘lgan ayollar ishtirok etishlari mumkin.

Agar ayol ishtirokchilar soni 8 nafardan kam bo‘lmasa, Faxriy ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati (aylanma tizimda) tashkil etiladi, agar ishtirok soni 8 nafardan kam bo‘lsa, u holda musobaqa erkaklar o‘rtasida O‘zbekiston birinchiligi tarkibida shveysarcha tizimda tashkil etiladi.

18. 8-18 yoshgacha Rapid va Blitz yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston chempionatida shaxmat bo‘yicha 2024 yilgi milliy terma jamoa a‘zolari, shuningdek, 2024 yilgi 8-18 yoshgacha o‘smirlar o‘rtasida standart bo‘yicha O‘zbekiston chempionatida 50% va undan ko‘p ochko to‘plagan sportchilar ishtirok etishlariga ruxsat beriladi.

19. Musobaqa hakamlari, tibbiyot xodimlari mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi musobaqa hakamlari va ishchi xodimlarining tarkibida ko‘rsatiladi.

## **VI-bob. Musobaqani o‘tkazish shartlari**

20. Musobaqalarni o‘tkazish shartlari Xalqaro shaxmat Federatsiyasi xalqaro norma va talablardan kelib chiqib belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-5279-sonli** qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi **PQ-3031-sonli** qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturida belgilangan talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Musobaqalarning tegishli tartib va qoidalari 2023 yil 20 noyabr kunidagi O‘zbekiston Shaxmat federatsiyasi trenerlar kengashining 5-sonli yig‘ilish bayonida muhokama qilingan va jamoalarning vakillariga yetkazilgan.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi 205-son “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tadbirini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tashkil etiladi.

Tekshiruv paytida ishtirokchida yuqori temperatura, kasallik alomatlari yoki boshqa shamollash alomatlari kuzatilsa o‘yinga qo‘yilmaydi.

22. Musobaqaning o‘tkazilishini O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlangan musobaqaning bosh hakami zimmasiga yuklatiladi.

23. Musobaqa nizomining tegishli bandlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan taqdirda musobaqaning boshlanishidan **3 kun oldin musobaqa ishtirokchilariga taqdim etiladi.**

Yillik nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi talab etilgan hollarda trenerlar kengashida muhokama qilingan holda yig‘ilish bayoni va hakamlar xay‘ati qarori hujjatlarni vazirlikka taqdim qilinadi va musobaqa boshlanishidan kamida o‘n ish kun oldin vazirlikni xabardor qilinadi. Tasdiqlangan yillik nizomning tegishli bandlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgandan so‘ng musobaqa boshlanishidan **besh kun oldin musobaqa ishtirokchilariga tegishli hujjatlar (bilan tanishtiriladi) taqdim etiladi.**

## **VII-bob. Musobaqani o‘tkazish tizimi**

24. 8, 10, 12, 14, 16, 18 yoshgacha yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati. Musobaqa shveytsarcha tizimda 9 turda o‘tkaziladi. Standart uchun har bir ishtirokchiga o‘yin uchun 90 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 30 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi.

### **Rapid va blits bo‘yicha O‘zbekiston chempionati:**

Shveytsarcha tizimda 7 turda o‘tkaziladi. Rapid bo‘yicha vaqt nazorati-har bir ishtirokchiga o‘yin uchun 10 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 2 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi. Blits bo‘yicha vaqt nazorati-har bir ishtirokchiga 3 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 2 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi.

### **Erkaklar va ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati Oliy ligasi**

Musobaqa aylanma tizimda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchiga o‘yin uchun 90 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 30 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi.

### **Faxriylar (erkaklar va ayollar) o‘rtasida O‘zbekiston birinchiligi**

Musobaqa shveytsarcha tizimda 7 yoki 9 turda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchiga o‘yin uchun 25 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 10 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi.

## **VIII-bob. Musobaqada ishtirok etish uchun talabnoma (buyurtma)larni taqdim etish shartlari**

25. Musobaqada ishtirok etish uchun mandat komissiyasiga quyidagi hujjatlar taqdim etilishi shart:

a) hududiy yoshlar siyosati va sport boshqarmalari va hududiy federatsiyalar tomonidan tasdiqlangan talabnomalar (4-ilovasiga binoan);

b) talabnomada tibbiyot muassasasining vrachi tomonidan har bir sportchining musobaqada ishtirok etishiga ruxsati (imzo va muhri bilan tasdiqlangan holda);

c) sportchining tugʻilganlik toʻgʻrisida guvohnomasi (asli koʻrsatiladi);

d) 16 yoshga toʻlgan har bir sportchining pasport nusxalari yoki AD karta (asli koʻrsatiladi);

e) 2024 yil uchun oʻtkazilgan viloyat chempionatining kategoriyalar boʻyicha yakuniy jadvali;

Aks holda, ishtirokchilar chempionatda ishtirok etishga ruxsat berilmaydi. Barcha ishtirokchilar Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi va Oʻzbekiston Shaxmat federatsiyasi aʼzosi boʻlishi shart!

26. Musobaqaga kelish kuni talabnomalarning asl nusxasi musobaqada ishtirok etuvchi jamoa vakili tomonidan mandat komissiyasiga roʻyxatga olish kuni taqdim etiladi.

### **IX-bob. Gʻoliblarni aniqlash (natijalarni baholash tizimi)**

27. Shveysarcha tizim uchun: Gʻoliblar toʻplagan ochkolariga qarab aniqlanadi. Erkaklar oʻrtasida Oʻzbekiston chempionati Oliy ligasida har bir gʻalaba uchun - 3 ochko, durang uchun - 1 ochko va magʻlubiyat uchun - 0 ochko beriladi. Qolgan chempionatlar uchun esa gʻalabaga - 1 ochko, durangga - 0.5 ochko va magʻlubiyatga - 0 ochko beriladi.

Agar ikki yoki undan koʻproq ishtirokchilarda ochkolar soni bir xil boʻlsa, oʻrinlar quyidagi qoʻshimcha korsatkichlarga koʻra taqsimlanadi:

1) Oʻzaro uchrashuv (agar barcha ochkolari bir xil ishtirokchilar oʻzaro bir-birlari bilan oʻynagan boʻlsa); 2) Buxgol`ts, 3) Qisqartirilgan buxgol`ts, 4) Koʻproq gʻalabalar soni, 5) Qoralarda koʻproq gʻalaba soni.

28. Aylanma tizim uchun: Musobaqa gʻoliblari toʻplagan ochkolariga qarab aniqlanadi.

Agar ikki yoki undan koʻproq ishtirokchilarda ochkolar soni bir xil boʻlsa, oʻrinlar quyidagi qoʻshimcha korsatkichlar koʻra taqsimlanadi:

1) Oʻzaro uchrashuv, 2) Berger, 3) Koʻproq gʻalabalar soni, 4) Qoralarda koʻproq gʻalaba soni.

### **X-bob. Dress-kod**

29. Chempionat vaqtida barcha ishtirokchilar FIDening dress-kodga oid talablariga rioya qilishlari shart. Kalta shim, ochiq oyoq kiyimlar va quyoshdan himoyalovchi koʻzoynaklar, sport shapkasi va ochiq kiyimlar taqiqlanadi.

Shuningdek, ishtirokchilar dress-kodga chempionatning ochilish va yopilish marosimlari amal qilishlari lozim.



## **XI-bob. Musobaqani moliyalashtirish manbalari**

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 27-apreldagi “Terma jamoalar hamda ularning zaxirasini sport musobaqalariga tayyorlashni, shuningdek ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 121-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Terma jamoalar hamda ularning zaxirasi sportchilari va trenerlarining energiya sarflarini qoplashga va jismoniy resurslarini tiklash uchun maqsadli pul (moliyaviy) mablag‘larini sarflash tartibi to‘g‘risida”gi NIZOMning 18 va 19-bandlariga muvofiq sarf-harajatlar vazirlik tomonidan, ayrim hollarda sport federatsiya (assotsiatsiya) va homiyar tomonidan qoplanishi mumkin.

Musobaqada ishtirok etuvchi sportchilar, trenerlarning ovqatlanishi, yotoqxon va yo‘l xarajatlari safarga yuboruvchi tashkilotlar tomonidan;

musobaqada ishtirok etuvchi hakamlarning xarajatlari vazirlik tomonidan, ayrim hollarda federatsiya va homiyar tomonidan;

musobaqada xizmat qiluvchi xodimlarning xarajatlari federatsiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

31. Musobaqani moliyalashtirilishi yuzasidan ushbu Nizomning moliyalashtirish shartlariga vazirlik tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

## **XII-bob. Musobaqa natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko‘rib chiqish**

32. Musobaqa natijalari bo‘yicha berilgan murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun shaxmat federatsiyasi tomonidan apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi musobaqa hakamlari va mandat komissiyasi tarkibida bo‘lmagan soha mutaxassislaridan shakllantirilishi talab etiladi.

33. Apellyasiya komissiyasining tarkibi 5 kishidan iborat tarkibda tasdiqlanadi. Apellyasiyani ko‘rib chiqish tartibi FIDE talablariga muvofiq, apellyasiya komissiyasi tomonidan belgilanadi.

34. Apellyasiya komissiyasi murojaatni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra musobaqa natijasini bekor qilishi yoki unga tegishli o‘zgartirish kiritishi mumkin.

35. Apellyasiya komissiyasining murojaatni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilgan qarori yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

## **XIII-bob. Musobaqa g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash**

36. Musobaqaning g‘olib va sovrindorlari vazirlik tomonidan tasdiqlangan I, II, va III-darajali tegishli diplomlar hamda medallar bilan federatsiya tomonidan taqdirlanadi.

37. Musobaqaning g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash uchun vazirlik, shaxmat federatsiya yoki homiyar tomonidan pul mukofotlari yoki qimmatbaho sovg‘alar belgilanishi mumkin.

#### XIV-bob. Yakuniy natijalar tahlili

38. Shaxmat federatsiyasi o'tkazilgan musobaqa to'g'risida vazirlik tomonidan tasdiqlangan hisobot shakli bo'yicha vazirlikka musobaqa tugagandan so'ng **3 kun muddat ichida** musobaqaning yakuniy natijalari yuzasidan tahliliy ma'lumot taqdim etadi.

39. Musobaqa yakuniga qadar uzrli sababsiz hakamlar xay'atini yozma ravishda ogohlantirmasdan tark etgan qatnashchilar O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi Ijroiya qo'mitasi yoki trenerlar kengashi qaroriga ko'ra jazolanadi.

40. O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi FIDE'dagi o'zgarishlarga va Ijroiya qo'mitasi qaroriga ko'ra, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.

41. Xalqaro chempionatlarda ishtirok etuvchi O'zbekiston terma jamoasi tarkibi O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi trenerlar Kengashi taklifiga binoan O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi Ijroiya qo'mitasi qaroriga ko'ra shakllantiriladi.

**Xalqaro shaxmat  
Akademiyasi direktori**

**O. Karimov**

**O'zbekiston Shaxmat  
federatsiyasi ijrochi direktor**

**N. Mukumov**

**O'zbekiston Shaxmat  
federatsiyasi bosh treneri**

**A. Fayzullaev**

**O'zbekiston Shaxmat  
federatsiyasi menejer**

**I. Semenova**

Sportning shaxmat turi bo'yicha  
2024-yilda O'zbekiston chempionatlari va  
O'zbekiston Kubogi hamda Respublika  
musobaqalarini o'tkazish  
to'g'risida Nizomga  
1-ILOVA

**Sportning shaxmat turi bo'yicha musobaqalar  
RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Musobaqani o'tkazish vaqti</b>	<b>O'tish joyi</b>	<b>Viloyat chempionatlari</b>
1.	8,10,12, yoshgacha o'smirlar va o'smir qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionati (standart, rapid va blitz)	belgilangan muddatda	Toshkent	belgilangan muddatda
2.	14,16 va 18 yoshgacha o'smirlar va o'smir qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionati (standart, rapid va blitz)	belgilangan muddatda	Toshkent	belgilangan muddatda
3.	Ayollar va erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati (oliy liga)	belgilangan muddatda	Toshkent	belgilangan muddatda
4.	Faxriylar (ayollar va erkaklar) o'rtasida O'zbekiston birinchiligi	belgilangan muddatda	Toshkent	belgilangan muddatda
5.	Imkoniyati cheklangan shaxmatchilar o'rtasida O'zbekiston birinchiligi	belgilangan muddatda	Toshkent	belgilangan muddatda

Sportning shaxmat turi bo'yicha  
2024-yilda O'zbekiston chempionatlari va  
O'zbekiston Kubogi hamda Respublika  
musobaqalarini o'tkazish  
to'g'risida Nizomga  
2-ILOVA

**Sportning shaxmat turi bo'yicha o'tkaziladigan  
musobaqalar dasturi**

<b>Musobaqa sanasi 1-kun</b>	
10:00-16:00	Hududlardan keladigan jamoalarni ro'yxatdan o'tkazish
17:00-18:00	Hakamlar xay'ati yig'ilishi
19:00-21:00	Qur'a tashlash (1 tur uchun)
<b>Musobaqa sanasi 2-13-kun</b>	
9:00- 09:30	Musobaqaning ochilish marosimi(faqat 2-kun uchun)
09:30-13:30	I tur (qizlar o'rtasidagi musobaqa) standart
14:30-18:30	I tur (o'smirlar o'rtasidagi musobaqa) standart
19:00- 20:00	Qur'a tashlash (2-9 turlar uchun)
<b>Musobaqa sanasi 13-kun</b>	
9:00- 09:30	XIII tur (qizlar ortasidagi musobaqa) standart
09:30-13:30	Yakunlarni e'lon qilish va g'oliblarni taqdirlash
14:30- 18:30	XIII tur (o'smirlar o'rtasidagi musobaqa) standart
18:30- 19:30	Yakunlarni e'lon qilish va g'oliblarni taqdirlash
<b>Izoh*- Musobaqa yo'nalishga muvofiq, 2 kundan 14 kungacha kun davom etishi mumkin.</b>	

Sportning shaxmat turi bo'yicha  
2024-yilda O'zbekiston chempionatlari va  
O'zbekiston Kubogi hamda Respublika  
musobaqalarini o'tkazish  
to'g'risida Nizomga  
3-ILOVA

**Hakamlar xay'ati soni**

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Soni</b>
1.	Bosh hakam	1
2.	Bosh kotib	1
3.	Bosh hakam o'rinbosari	1
4.	Hakamlar	15
5.	Shifokor	1
6.	Hamshira	1
7.	Kompyuterchi	1
Jami		21

Sportning shaxmat turi bo'yicha  
2024-yilda O'zbekiston chempionatlari va  
O'zbekiston Kubogi hamda Respublika  
musobaqalarini o'tkazish  
to'g'risida Nizomga  
4-ILOVA

**Talabnomalar (buyurtmalar)ning namunasi**

“Tasdiqlayman”  
Yoshlar siyosati va sport  
boshqarmasi boshlig'i  
\_\_\_\_\_ F.I.Sh.  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 yil

“Tasdiqlayman”  
Shaxmat federatsiyasi hududiy  
bo'limi raisi  
\_\_\_\_\_ F.I.Sh.  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 yil

\_\_\_\_\_  
(hudud nomi, sport turi, musobaqa nomi)

**TALABNOMA**

T/r	Sportchining F.I.Sh.	Tug'ilgan yili	Sport razryadi	Sport tashkiloti	Treneri	Shifokor
1.						
2.						
....						

**Izoh: Sport turining xususiyatidan kelib chiqib 15% gacha o'zgartirish  
kiritish mumkin.**

**Bosh trener**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh)

**Shifokor**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)